



**Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida Chingizxon**

**va mo'g'ul shaxzodalar bayoni**

**Usmanaliyeva Muqaddas**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika

Universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlarini o'qitish

metodikasi(tarix) yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida Sohibqiron Chingizxon va uning avlodlari tomonidan bosib olingan hududlari haqida ma'lumotlarni o'rganib chiqib fikr-mulohazalar keltiriladi. Mo'g'ul hukmdorlarining taxtga kelishi va ularning olib borgan siyosatlari haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Chingizxon, O'qtoy, Ariq Buqo, Dashti Qipchoq, Jo'jixon, Jaloliddin Manguberdi, Qoraqurum, Xonbalig',sohibqiron,mo'g'ul.

**Abstract:** In this article, Mirzo Ulugbek's "History of Four Nations" contains information about the territories conquered by Sahibqiron Genghis Khan and his descendants, and comments are made. Information about the coming to the throne of the Mongol rulers and their policies is presented.

**Key words:** Genghis Khan, Oktoy, Ariq Buko, Dashti Kipchak, Jozhikhan, Jalaluddin Manguberdi, Karakurum, Khanbalig, Sahibqiran, Mongolian.



**Аннотация:** В данной статье «История четырех народов» Мирзо Улугбека приводятся сведения о территориях, завоеванных Сахибкироном Чингисханом и его потомками, а также даются комментарии. Представлены сведения о приходе на престол монгольских правителей и их политике.

**Ключевые слова:** Чингисхан, Октой, Арик-Буко, Дашти Кипчак, Джожихан, Джалалуддин Мангуберди, Каракурум, Ханбалыг, Сахибкиран, монгол.

Bizga tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyo tarixi, mo'gullarning O'rta Osiyo hududlariga bostirib kirishlari hamda mo'g'ul shahzodalar haqida juda qimmatli ma'lumotlar va tarixiy asarlar mavjud. Yaratilgan asarlarning har biri o'z davri uchun muhim va qimmatli ma'lumotlarni berishi bilan ajralib turadi. Misol tariqasida Rashiddinning "Jami-ut tavorix", Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kabi bir qancha asarlarni keltirishimiz mumkin. Ana shunday asarlardan biri Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asaridir. Muallif asarda XV asr boshlarigacha bo'lgan davr uchun qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirilgan. Bu asarning qimmatliligi shundaki, o'sha davrning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va etnografik ma'lumotlarni ham berilganligidadir.

"To'rt ulus tarixi" asari VII bobdan iborat. Mazkur asarda mo'g'ul shahzodalar haqida to'rtinchi bobda O'qtoy qoon zamonidan to Ariq Buqo avlodi O'rdoy qoongacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, Chingizxon vafotidan keyin to Amir Temur zamonigacha Mo'g'ulistonda hukmronlik qilgan 21 hukmdordan 17 tasining tarixi qisqacha bayon etilgan. Muhimi shundaki, Rashiddin ulardan faqat beshtasi (O'qtoy, Chig'atoy, Guyukxon, Mangluxon, Hubiloy)ning nomini[1], Sharafiddin Ali Yazdiy ning "Muqaddima-yi Zafarnoma" asarida ulardan faqatgina 14 tasining nomi keltirilgan.[2]



“To’rt ulus tarixi” asarida mo’gul shaxzodalarni uch guruhga bo’lib o’rganamiz. Mo’g’ulistonda O’qtoy qoon avlodlari, Dashti Qipchoqda Jo’jixon avlodlari va Movarounnahrda Chig’atoy ulusining hukmronligiga bo’lib o’rganiladi.

Sohibqiron Chingizxon vafot etish chog’ida barcha shaxzodalarni to’plab o’zidan keyingi taxt vorisini, ya’ni, davomchisini tayin etdi va ularga tayinladiki, mening buyuk farmonimga qarshi bormanglar deb ta’kidladi. Tuminaxon ol tamg’asiga yetadigan Quyluxon va Qochuli Bahodurga otalarimiz tartib berib o’z xatini unda qoldirgan ahdnomani xazinadan olib kelishadi. O’g’illariga “Men va bizning otalarimiz shu xilda ahd qilgan edik, endi men O’qtoyxonni o’z o’rnimga xonlikka tayin qildim va saltanatim taxtini unga topshirdim. Sizlar ham o’zoro o’sha qoidaga amal qilingiz va O’qtoyxonning farmonidan chiqmaymiz, uning quriltoyida hozir bo’lamiz, deb imzo chekinglar!”[3] deya o’z farmonini e’lon qildi.

Movarounnahr va unga yondosh hududlar Chig’atoyxonga bergan edi, buning sababi eroniylar va turoniylar orasida qadimdan dushmanlik kayfiyati mavjud edi. Bundan tashqari hali hanuz Jaloliddin va uning aka-ukalari tirik edi. Shu sababli Qorachor no’yonga Chig’atoyni topshirdi. Sohibqironi a’zam Chingizxon yetmish uch yil umr ko’rgan. Qirq to’qqiz yoshida taxtga o’tirgan va yigirma besh yil podsholik qilgan. O’g’illari ichida to’rttasi ma’lum va mashxurdir. Jo’jixon Dashti Qipchoqda Chingizxondan olti oy avval vafot etgan edi, Chig’atoy, O’qtoy va Tulixonlar edi. Chingizxon tuzgan mamlakatga, ya’ni, Keluron va Qoraqurumdan iborat ulug’ yurt O’rdubolig’ degan nom bilan shuxrat topgan bo’lib, unda yigirma bir kishi podsholik qilgan edi. Ularning birinchi podshosi Sohibqironi a’zamning o’g’li O’qtoyqoondir.

625 yil bahorida barcha shaxzodalar va amirlarning hammasini qurultoyga jam qildi. Qurultoyda taxtga odatimiz bo’yicha O’tkin Bahodur yoki Talkut Bahodurlar o’tirishi kerakligini ta’kidladi, lekin barcha shaxzodalar va no’yonlar bu Sohibqironi a’zam Chingizxonni buyrug’i ekanligini ta’kidi va taxtga O’qtoy xonlik taxtiga o’tirdi. O’qtoy



Chingizxonni o'g'li bo'lishiga qaramay, ko'p aqlli, komil, ishbilarmon, sahovat xislatlari mavjud edi. Barcha toifalarga, xususan, islom xalqiga yaxshiliklar qilgan. U Muhammad millatiga tobe' bo'lmasa ham musulmonlik dinini boshqa dinlardan ustun qo'ydi. O'qtoy qoon o'zining saxiyligi, karami va adolatparvarligi bilan boshqa aka-ukalaridan ustun turardi, shuning uchun ham otasi o'limidan avval uni valiahdlikka tayinlangan edi. "O'qtoy" so'zining ma'nosi mo'g'ul tilda "Oliylikka ko'tariluvchi" degan ma'nolarni bildiradi. Mo'g'ul mamlakatidan bo'lmagan, mo'g'ul tilini bilmagan va o'z islom dinida bo'lmagan kishi kunlardan bir kun O'qtoy qoonning oldiga keldi: "Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzamni tushimda ko'rdim, u: "O'g'lim O'qtoy qoonga ayt, agar u musulmonlarni qatl etmasa, men undan rozi emasman, chunki ular yomon xalq va ularni o'ldirish lozim bo'lgan firqa!" deb aytdi. Uning bu so'zlariga davlat arkonlarini bir qismi ishonib, shoyad bu so'z rostdir, deb o'yladilar. O'qtoy biroz o'ylanib turib bu so'z yolg'ondir, sababi Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam mo'g'ul tilda boshqa tilde so'zlamagan degan xulosa chiqarib o'sha insonni o'ldirishini buyurgan.[4]

O'qtoy, Chig'atoy va Tulixon hamda hisobsiz lashkarlar bilan Xitoy mamlakati tomon yuzlandilar, dastlab Bino shahrini ozod qildilar. Xitoyning Oltinxoni mo'g'ul lashkarining hujumidan qochib, sirli holatda g'oyib bo'ldiki, hech bir zod uning xabarini topmadi. U yerni idora qilishni Mahmud Yalavochga topshirib, o'zi ortga qaytadi. 627 yili Bolig' no'yon nomi bilan mashhur bo'lgan Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzamning to'rtinchi o'g'li Tulixon olamdan ko'z yumadi. Tulixon lashkar tortish, yurti boshqarish mahorati, otlaru xazinani asrash borasida juda mahoratli edi. Tulixondan sakkiz o'g'il qolgan. Manku qoon, Qo'lay qoon, Ariqbuqo qoon va Halokuxon bir onadan edilar.

O'qtoy qoon o'z o'rdasiga qaytib, Qoraqurumda bir qasr bunyod qildi, turklar uni Qarshi deb ataydilar.

Turklarning bars yiliga muvofiq bo'lgan 639 hijriy yili ortiqcha sharob ichishi sababli O'qtoy qoon vafot etadi. U 14 yil mamlakatni boshqardi. Undan so'ng taxtga Quyuk ibn



O'qtoy ibn Chingiz o'tiradi. Otasi vafotidan keyin qurultoy chaqiradi va bu qurultoyga hamma mo'g'ul shaxzodalari keladi, faqat Botuxon o'z inisini o'rniga yuborib, oyog'i og'ritayotganini bahona qilib kelmaydi. Sababi O'qtoy qoon valiahdlikka Sheromun in Kuchuyga tayin qilgan edi. Lekin u yosh bo'lganligi sababli onasi Nurak-son xotun va boshqa shahzodalar kelishib Quyukxonni xonlikka chiqaradi. Hukumronligiga bir yil bo'lganda Eron sari yo'l olgan paytda Samarqandda vafot etadi.

Quyukxondan so'ng uch yil o'tib hukmdorlik taxtiga Mangu ibn To'lixon o'tirdi. Lekin ko'pchilik shahzodalar uni xon bo'lishini istamagan, chunki O'qtoyqoon avlodidan emasligi edi. Barcha shahzodalar turli bahonalar bilan Mangu qoonning qurultoyiga kelmaydi, shuning uchun uning taxtga o'tirishi kechikib ketadi. Taxtga o'tirgandan so'ng Eronni egallash maqsadida ukasi Halokuxon ibn Tulixonni yuboradi. Halokuxon ibn Tulixon Eronni egallab, Ozarboyjonni saltanat taxtiga aylantirdi. Mangu qoon davrida uyg'ur hokimi Idiqut musulmonlarga qasd qilib, Beshbalig'da juma namozi vaqtida musulmon xalqini qatli omon qilmoqchi edi. Bundan habar topgan Mangu qoon xoinlarni o'ldiradi va musulmon xalqini jonini saqlab qoladi. Uning zamonida islom dini to'la ravnaq topdi. Ukasi Qubiloy bilan Taknosga hujum qildi va u yerni egalladi, lekin u yerning havosi Mangu qoonga hush kelmaydi va hijriy 658 yilda vafot etadi.

Mangu qoonning 14 yillik saltanatidan so'ng taxtga ukasi Qubiloy ibn Tulixon o'tiradi. Chin va Mochin xalqining qarshiligini yengish uchun Qubiloy qoon 800 ming askarni Taknos va Chakanduga yuboradi va u yerni qo'lga kiritgandan so'ng Chakandu shahrining yoniga bir shahar bunyod qildiradi. U yega Didu deb nom beradi va bu mo'gul tilida Xonbalig' deb nom olgan. Zaytun daryosida suv olib o'tib Xonbalig' shahriga olib keladi.

Qubiloy qoon 35 yillik hukmronlikdan so'ng taxtga nabirasi Temur ibn Jamkin ibn Qubiloy ibn Tulixon taxtga o'tirdi. O'n ikki yillik hukmronligi davrida uni xalq O'ljoytuxon deb ataydi.



Mo'g'ullar taxtini egallab turgan o'n yettinchi qooni O'ktemurqoon vafot etgandan so'ng taxtga Elchi Temur qoon chiqadi. U hali saltanat taxtiga chiqmasidan turib, hazrat Muzaffar Amir Temur Ko'ragonning mulozamatiga muyassar bo'ldi. Sohibqiron Amir Temur vafot etgandan so'ng Bolig' yurtiga borib xonlik taxtiga o'tiradi. U hukmronlik qilayotga paytda tangutlar Xitoyga hujum qilib, tortib oladi. Asli yurtlari bo'lgan Keluron va Qoraqurumgina qo'lida qoladi.

Mo'g'ul saltanatining so'nggi yigirma birinchi qooni O'qtoy qoon naslidan bo'lgan O'doy qoon ibn Ariqtemur qoon shohlik taxtiga kelgan davrida uyrot amirlari kuchayib ketadi. Mo'g'illarning asl yurti bo'lgan Keluron va Qoraqurumni uyrotlar tomonidan egallab oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Bo'riboy Ahmedov "O'zbekiston tarixi manbalari".T: "O'qituvchi". 2001-yil.
2. Abdumajid Madraimov, G.Fuzailova. Manbashunoslik.T: "Fan" nashriyoti. 2007-yil.
3. Mirzo Ulug'bek "To'rt ulus tarixi". Ahmedov B. tarjimasi. T: "Yosh kuch" nashriyoti. 2019-yil.